ILMIY AXBOROT

UDK: 159.9(075) **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a149**

SHAXSNI O‘RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARNING AFZALLIKLARI TAHLILI

ПРОЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ИЗУЧЕНИИ ЛИЧНОСТИ АНАЛИЗ ПРЕИМУЩЕСТВ

PROJECTIVE METHODS IN PERSONAL STUDY ANALYSIS OF ADVANTAGES

Yadgarova Ozoda Ibragimovna[1]

[1]Yadgarova Ozoda Ibragimovna – Samarqand davlat chet tillar instituti, katta o‘qituvchi, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada shaxsni o‘rganishda proyektiv metodikalarining diagnostik imkoniyatlari, afzalliklari va kamchiliklari bayon etilgan. Shuningdek, shaxs xususiyatlari va qiziqishlarini aniqlashga yordam beruvchi proyektiv metodikalardan birini o‘tkazilish tartiblari tahlil etilgan. Proyektiv metodikalarni shaxsni o‘rganishdagi muhim xususiyatlari shundaki, bu metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o‘lchashga yo‘naltirilgan bo‘lib, respondent, ya’ni so‘ralayotganlarning oldiga qo‘yilgan vazifasiga va natijalarni qayta ushlash va sharhlash xususiyatiga ko‘ra farq qiladi. Qisqa qilib aytganda, proyektiv metodlar test usullarining bir ko‘rinishi bo‘lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko‘rinishga ega bo‘lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig’i beriladi. Bu metodika shaxsning yashirin, anglanmagan tomonlarini aniqlash va baholashga yordam beradi

Аннотация

В этой статье описаны диагностические возможности, преимущества и недостатки проективных методов в исследовании личности. Также анализируются процедуры проведения одного из проективных методов, которые помогают определить особенности и интересы человека. Важными особенностями проективных методов в исследовании человека является то, что эти методы направлены на измерение характеристик и интеллекта человека в зависимости от поставленной перед респондентом задачи, то есть тех, кого спрашивают, и характера отлавливания и интерпретация результатов. Проще говоря, проективные методы - это тип метода тестирования, при котором испытуемому предлагаются неоднозначные элементы, которые не видны четко для испытуемого, и предлагается их интерпретировать. Этот метод помогает выявить и оценить скрытые, нереализованные стороны человека.

Abstract

This article describes the diagnostic possibilities, advantages and disadvantages of projective methods in the study of personality. The procedures for conducting one of the projective methods are also analyzed, which help to determine the characteristics and interests of a person. Important features of projective methods in human research are that these methods are aimed at measuring the characteristics and intelligence of a person, depending on the task assigned to the respondent, that is, those who are asked, and the nature of catching and interpreting the results. In a word, projective methods are a type of testing method in which the test-taker is presented with ambiguous items that are not clearly visible to the test-taker and is asked to interpret them. This method helps to identify and evaluate the hidden, unrealized sides of a person.

Kalit so‘zlar: *proyeksiya, proyektiv, psixodiagnostika, interpretatsiya, konstitutiv, konstruktiv, ekspressiv, impressive, intellekt, respondent.*

Ключевые слова: *проекционный, проективный, психодиагностический, интерпретационный, конститутивный, конструктивный, экспрессивный, впечатляющий, интеллект, респондент*

Key words: *projection, projective, psychodiagnostics, interpretative, constitutive, constructive, expressive, impressive, adjective, intelligence, respondent.*

KIRISH

Bugungi kunda shaxs xususiyatlari va ularning kamolotini diagnostika qilish imkonini beruvchi talaygina psixodiagnostik metodlar mavjud bo‘lib, ular orasida proektiv metodikalar alohida o‘rinni egallaydi. Proyektiv metodikalar xayol va fantaziya mahsullarini tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, shaxsning ichki dunyosi, uning sub’yektiv kechinmalari, fikr, ustanovkalarini ochishga qaratilgan. Proyektiv metodikalar shaxs diagnostikasi uchun mo‘ljallangan metodikalar guruhi bo‘lib, ular uchun shaxsning alohida, ayrim xususiyatlarini emas, uni umumlashgan holda (global tarzda) baholash xosdir. Proyektiv metodikalarning eng muhim belgisi ularda noaniq stimullarning qo‘llanilishi bo‘lib, sinaluvchining o‘zi ularni to‘ldirishi, tavsiflashi, izohlab berishi

mumkin. Hozirda proyektiv metodikalar keng qo‘llaniladigan, ko‘p tarqalgan metodikalar sirasiga kiradi. Psixologiya fani va amaliyotdan shaxs ruhiy holatini o‘rganishda proyektiv metodikalar alohida ahamiyatga ega. Bu kabi metodikalarning yuzaga kelishi va rivojlanishida shaxs, uning ichki dunyosini bilish, o‘rganish imkoniyati haqidagi g’oyalarga bo‘lgan psixologik qarashlar evolyutsiyasi aks etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA PROYEKTIV METODLAR

Proyektiv metodikalarning ahamiyatli tomonlari shundaki, yarim asrlik rivojlanish tarixiga ega proyektiv psixologiya bugungi kunda shaxs haqidagi psixologik bilim sohalaridan biri bo‘lib, uni o‘zlashtirmay shaxs haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin emas. Shu o‘rinda proyektiv metodika tushunchasini yoritib o‘tishiniz lozim. «Proyeksiya» tushunchasi dastlab Z. Freyd tomonidan sub’yektning ongli va ongsiz tarzda ko‘chirilgan shaxsiy xususiyatlari, tashqi ob’yektlarga nisbatan holatlarning mazmunini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Proyeksiya lotincha *«proektio»* so‘zidan olingan bo‘lib, oldinga irg’itish, tashlash ma’nosini bildiradi. Shaxsni o‘rganishning proyektiv metodi eksperiment natijalariga asosan proyeksiyalarni aniqlash va so‘ngra ularni tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Proyektiv metodlar tekshiriluvchini shunday holatga qo‘yadiki, bunda uning shaxsiy ehtiyojlari, uning o‘ziga xos idroki, tavsiflari va ko‘pgina xarakter xislatlari namoyon bo‘ladi. Proyeksiya so‘zli assotsiatsiyalar, tugallanmagan jumlalar, rasm va dog’lar, tekshiriluvchining chizgan rasmlari kabi verbal hamda rasmli metodlarning barchasini qo‘llaganda kuzatiladi. Proyektiv metodikalar tarixi 1904-1905 yillarda K.Yung tomonidan yaratilgan so‘zli assotsiatsiyalar testiga borib taqaladi. Bu metodikani yaratish bilan K.Yung shaxsning ongsizlik holatidagi kechinmalarini assotsiativ diagnostika qilish mumkinligini ko‘rsatib berdi. Proyektiv diagnostikaning kelib chiqishi 1921-yilda G.Rorshax tomonidan, nemis tilida «Psixodiagnostika» asarining nashr qilinishi bilan bog’langan. [1]

Proyektiv metodikalarga xos eng muhim xususiyatlar quyidagilardan iborat:

- ❖ nisbatan aniq tuzilishga ega bo‘lmagan va turli-tuman javob berishga yo‘l qo‘yuvchi topshiriqlardan tashkil topgan;
- ❖ bir xil mazmunga ega bo‘lmagan, tarqoq, tartiblashtirilmagan qo‘zg’atuvchilar shaxs xususiyatlari, holati va muammolari uchun “ekran” vazifasini o‘taydi;
- ❖ shaxsning yashirin, anglanmagan tomonlarini aniqlash va baholashga yondashuvning keng tarmoqliligi.

Proyektiv metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o‘lchashga yo‘naltirilgan bo‘lib, standartlashtirilgan metodlardan qo‘zg’atuvchi materialning tabiatiga, respondent, ya’ni so‘ralayotganlarning oldiga qo‘yilgan vazifasiga va natijalarni qayta ushlash va sharhlash (interpretatsiya qilish) xususiyatiga ko‘ra farq qiladi. Qisqa qilib aytganda, proyektiv metodlar test usullarining bir ko‘rinishi bo‘lib, ularda tekshiriluvchi uchun aniq ko‘rinishga ega bo‘lmagan noaniq narsalar tavsiya etiladi va ularni sharhlash topshirig’i beriladi. Masalan, tekshiriluvchiga turlicha talqin qilish mumkin bo‘lgan rasmlar, tugallanmagan hikoyalar, biror aniq ko‘rinishi mavjud bo‘lmagan buyumlar berilishi va ularni tekshiriluvchi o‘zining qiziqishlari, dunyoqarashi nuqtai nazaridan baholashi kutiladi. Quyida ana shunday shaxs xususiyatlari va qiziqishlarini aniqlashga yordam beruvchi proyektiv metodikalardan birini o‘tkazilish tartiblari bilan tanishtiramiz.

Baland tog’lar proyektiv metodining insonga hayotidagi muhim insonlaridan biri bo‘lgan otasi bilan munosabatini, mustaqil hayot yo‘lidagi kashf etishi mumkin bo‘lgan qobiliyat va kuchini, ichki imkoniyatlarini aniqlab olish imkonini beradi.[3]

Psixolog trenerning so‘zi: Tog’lar va daryolar - tabiat bizni o‘ziga tortuvchi ulkan kuchga ega. Texnologiya qanday mo‘jizalarni yaratishiga qaramasdan, orqaga tabiatga qaytish haqiqatdan borligimizni va tirikligimizni his etishimizga yordam beradi. Meditsina fanlari ilgarilab boraveradi, lekin tabiatning davolovchi sehri kuchi shifobaxshligicha qolaveradi.

Navbatdagi sayohatingiz sizni ana shu yashil dunyoga qaytaradi, inson o‘zining haqiqiy «Meni»ni qaytadan ochishi uchun bundan yaxshi muhit topib bo‘ladimi?

1. Siz tog’ etagida turib, toqqa ko‘tarilishni rejalashtirayapsiz. Siz tog’dan ertaklardagiday kamyob toshni izlab topish istagidasiz. **To‘ etagida turganingizda tog’ sizda qanday taassurotlarni hosil qiladi?**

2. Siz toqqa chiqqaningizdan keyin uzoq va qiyinchiliklar bilan toshni qidirdingiz, lekin hech narsa topa olmadingiz.

Siz qidirguningizgacha quyosh ham botishga ulgurdi. ***U yog’iga endi nima qilgan bo‘lardingiz?***

3. Nihoyat qidirayotgan toshingizni topdingiz. Bu qanday tosh? Uning kattaligi, ogirligi va qimmatbaholigini tasvirlab bering.

4. Endi tog'dan tushish va uyga qaytish vaqti keldi. Siz toqqa qanday vidolashuv so'zlarini aytgan bo'lardingiz va uning javobi qanday bo'ladi?

Test kaliti:	
Sizning ko'z oldingizda tasvirlangan tog' -	Bu sizning otangiz yoki otangizni sizning hayotingizda tutgan o'rnini tasvirlaydi. Psixologiya tilida - bu «aqlli qariya»ning arxetipi namoyon bo'lishidir.
Siz qidirayotgan tosh -	Bu sizning kelajakdagi mustaqilligingizga sayohatingiz vaqtida o'zingiz kashf etishingiz kerak bo'lgan qobiliyat va kuchingiz ramzidir.
Sizning tog' haqida taassurotlaringiz -	Bu otangiz to'grisidagi tasavvuringizni ifodalaydi. Toqqa chiqish qanday bo'ldi, mashaqqatli va qiyin bo'ldimi? Balki u osongina bosib o'tilgandir? Balki ideallashgan yuksak cho'qqi obrazi paydo bo'lib, u sizni chaqirgan va ruhlantirgandir.
Sizning toshni qidirishingiz -	Bu tosh sizdagi ochilmagan talant hamda kuchni anglatadi. Sizning bu savolga javobingiz esa siz hali o'zingizdagi hozircha foydalanilmagan ichki imkoniyatlaringizni qachondir qo'llay olasizmi yo'qmi shuni namoyon qiladi.
Nima bo'lganda ham bu toshni topishga harakat qilardim, - deb aytganlar	Odatda hayotda ham xuddi shunday tirishqoqlik va intiluvchanlikni namoyon qiladilar, ular agar harakatlari samarasizdek tuyulsa ham, hech qachon orqaga qaytmaydilar.
Vaqtinchalik qidiruvni to'xtatib, lekin keyinroq davom ettirishini aytganlar	O'z urinishlarini uzoq vaqtga mo'ljallaydigan va ish vaqtlarini o'zlari belgilaydigan odamlar tipiga kiradilar. Bu turdagi insonlar qobiliyatlari juda kech namoyon bo'ladi
O'zining qidiruv ishlarini to'xtatib, uyiga qaytmoqchi bo'lgan, ya'ni yengilgan odamlar	O'zlarining imkoniyatini hech qachon ishlata olmaydilar. Bunday insonlar irodasini mustahkamlash va qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha o'z ustida ishlashlari lozim
Toshni qanday tasvirlab, baholashingiz	O'z o'zingizga ahamiyatliligingizni his qilishingizni ifodalaydi. Tosh qanchalik katta va qimmatbaho bo'lsa, siz o'zingizni shunchalik qadrlaysiz.
Tog' bilan vidolashuv so'zlaringiz	Sizning o'z otangizga aytmoqchi bo'lgan, lekin ayta olmagan so'zlaringizdir. Tog'ning javobi esa otangizning sizga bo'lgan munosabatidir. Agar savol-javob mulozamatli, shirin, yoqimli, toza bo'lsa, o'zaro munosabatlaringiz yaxshi. Agar vidolashuv so'zlari qo'pol va og'ir bo'lsa, u holda o'tirib otangiz bilan o'zaro munosabatlar haqida ochiqchasiga gaplashib olish vaqti etganini ko'rsatadi

Fransialik psixolog Lourens Frank esa 1939-1948-yillarda proyektiv psixologiyaning asosiy prinsiplarini ishlab chiqqan.[2] Aynan u proyeksiya terminini bir qator proyektiv metodlarning guruhini anglatuvchi termin sifatida qo'llagan va shu metodlarning klassifikatsiyasini ishlab chiqqan. L.Frankning tadqiqotlari shaxsni o'rganishning "Xolestik" nazariyasiga katta ta'sir ko'rsatdi. O'z tadqiqotlarida Frank shaxsning ichki olamini o'rganishni maqsad qilib qo'ydi va bunda muhim omil sifatida insonning hatti-harakatlari emas balki uning nimani his qilayotgani va nima haqida o'ylayotgani deb bildi.[5] L.Frank (1939,1948) birinchilardan bo'lib proyektiv metodlarni quyidagicha tasniflagan:

L.Frank tomonidan ishlab chiqilgan proyektiv metodlar klassifikatsiyasi:				
Konstitutiv tekshiriluvchi unga taqdim etilgan qandaydir amorf, tartibsiz, tizimlashtirilma-gan materialga sub'yektiv mazmun bag'ishlashi kerak bo'ladi. Masalan, Rorshaxning "Siyoh do'g'lari metodikasi", Vartegning "Doirachalar" metodikalarini kiritish mumkin	**Konstruktiv** tajriba davomida tekshiriluv-chiga tavsiya etilgan alohida qismlardan (shakllar, kubiklar) foydalanib muayyan mazmunga ega yaxlit bir butun ob'ekt hosil qilishi va uni sharhlashi lozim;	**Ekspressiv** tekshiriluvchi tasviriy faoliyat orqali yashirin, bosim ostida turgan motiv va munosabatlarini ifodalab beradi Mazkur metodlar yordamida shaxsning yashirin motivlarini tekshiriluvchi tomonidan matn yoki xatga kiritilgan o'zgarishlar asosida aniqlanadi. ("Mavjud bo'lmagan hayvon", "Uy, daraxt, odam", "Odam rasmimi chizish", "Oilaning kinetik rasmi")	**Impressiv** metodikalarda tekshiriluvchi o'ziga tavsiya etilgan qo'zg'atuvchilar-dan yoqimli va yoqimsizlarini tanlashi kerak bo'ladi. Masalan, Lyusher testida tekshiriluvchi unga tavsiya etilgan 8 ta rangli kvadratlarni yoqish darajasiga ko'ra, tartib bilan joylashtirishi zarur bo'ladi. ("Zondi testi")	**Addettiv** bir butun predmet yoki xususiyatning hajmiga xos jihat bo'lib, u kichik tarkibiy qismlarga bo'linsa ham mazkur sifat yoki xususiyat unga tegishli bo'lib qolaveradi. Bu metodikalar Shaxs hayotidagi o'zgarishlardan tortib xulq-atvor motivlari hamda yoshlarning jinsiy tarbiyaga munosabatigacha o'rganishi mumkin. ("Tugallanmagan gaplar",

Psixodiagnostlarning tan olishlaricha, proyektiv metodikalar so'rovnomalarga nisbatan sinaluvchilar tomonidan falsifikatsiya (noto'g'ri talqin) qilinmaydi, shu sababli shaxsni diagnostika qilishda yaroqliroq sanaladi. Proyektiv metodikalarning ustunligi shu bilan bog'liqki, ularning maqsadi odatda yashiringan bo'ladi. Sinaluvchi shaxs olingan diagnostik ko'rsatkichlarni interpretatsiya qilish yo'llarini bilmaydi va ularni o'zining shaxs xususiyatlari bilan bog'lay olmaydi. Proyektiv metodikalar sinaluvchilar bilan, ayniqsa, yosh bolalar bilan ishlashda ular bilan aloqa (kontakt) o'rnatishda samarali hisoblanadi. Odatda ushbu metodikalar sinaluvchilarda qiziqish uyg'otadi va ular topshiriqlarni bajarishga tezda kirishib ketadilar. Demak, proyektiv metodikalarni qo'llashda boshqa metodlarga nisbatan sinaluvchilarda diagnostika jarayoniga alohida motivatsiya yaratish zaruriyati mavjud emas. Quyida proyektiv metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini keltirib o'tamiz.

Proyektiv metodikalarning afzalliklari:

1.Informativligi yuqori;

2.Shaxsni global baholash (uning yashirin, anglanilmaydigan jihatlarini aniqlash) imkoniyati;

3.Ularning maqsadi sinaluvchi uchun noaniq bo'lib, diagnostik ko'rsatkichlarni tavsiflab, ularni o'zining shaxs xususiyatlari bilan bog'lay olmasligi;

4.Sinaluvchilar bilan, ayniqsa, yosh bolalar bilan ishlashda samarali bo'lib, ularda topshiriqni bajarishga qiziqish uyg'otishi.

Proyektiv metodikalarning kamchiliklari:

1.Natijalarni tavsiflashdagi sub'yektivlik.

2. Psixometrik talablarga to'liq javob bermasligi, ya'ni ularning yetarlicha ob'yektiv emasligi.

3. Retest ishonchlilik koeffitsentining yuqori darajada emasligi, validizatsiya (lot. validus - sog'lom) qilishning murakkabligi.

4.Natijalarni tavsiflash murakkab bo'lib, bunda psixologik tayyorgarlik, ya'ni psixologik bilimlarga ega bo'lishlik va metodikani qo'llash bo'yicha tajriba talab qilinishi. [4]

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirda psixologlar tomonidan ko'pchilik proyektiv metodikalarni psixometrik kvalifikatsiyasi ustida ish olib borilmoqda, ya'ni normativ ko'rsatkichlarni umumlashtirish, metodikani o'tkazish jarayoni va natijalarni qayta ishlash usullarini modifikatsiya qilish amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan ishlar kelajakda proyektiv metodikalar, diagnostlar va tadqiqotchilar tomonidan yanada kengroq qo'llanilishi uchun imkon yaratadi. Shuni ta'kidlash lozimki, proyektiv metodikalar bilan ishlashda mutaxassis muammodan qochishi kerak emas, balki uning ichida yurishi kerakligi ta`kidlanadi, chunki uslub jihatdan bu metodlar shaxsni diagnostika qilishda o'ta samarali, mazmunli, ishonchli hisoblanadi. Yuqorida biz e'tibor qaratgan masala nafaqat proyektiv metodikalarning shaxsni tadqiq etishdagi o'ziga xosliklari haqidagi ma'lumotlarni boyitibgina qolmasdan, boshqa shaxs testlaridan ustunlik nuqtai

nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek proyektiv metodikalar shaxsning xususiyatlari va intellektini o‘lchashga yo‘naltirilgan bo‘lib, natijalarni qayta ishlash va sharhlash xususiyatiga ko‘ra farq qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. https://aim.uz/referaty/59-psikhologiya/77137-proyektiv-metodikalar.html
2. https://fikr.uz/blog/toshkent_islom_universiteti/shaxs-diagnostikasida-proyektiv-metodikalar.html
3. G.I.Niyazmetova. Shaxs psixodiagnostikasining proyektiv metodikalari. Psixologlar uchun qo‘llanma. Toshkent – 2015. 67 b (Niyazmetova G.I. Projective methods of personality psychodiagnostics. Handbook for psychologists. Tashkent – 2015. 67.p)
4. Психодиагностика: теория и практика/Пер с нем.-М. Прогресс, 1986.-207 . (Psychodiagnostics: theory and practice / Translated from German-M. Progress, 1986.-207.p)
5. F.A.Akramova. N.A. Israilova. T.V.Xurvaliyeva. “Ijtimoiy-psixologik trening va mashqlar to‘plami”. Sinf rahbarlari va amaliyotchi psixologlar uchun. Toshkent. “Iqtisodiyot” 2014 y.75.b. (Akramova F.A. ON THE. Israilov. T. V. Khurvalieva. “A complex of socio-psychological trainings and exercises”. For class teachers and practicing psychologists. Tashkent. “Economy” 2014 y.75.p.)